

ABDULLA QAHHOR HIKOYALARIDA XALQ MAQOLLARINING

LEKSIK-SEMANTIK JIHATLARI

Kaxxarova Shaxlo Shaydilloevna

BuxDu ingliz tili o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14742731>

Annotatsiya. Bu maqolada Abdulla Qahhor hikoyalarida xalq maqollarining o'rinli qo'llanishi va ularning leksik-semantik xususiyatlari bayon etilgan. Maqol va matallar uning asarlarida bo'lgani kabi asrlar davomida o'zining asl shaklini saqlab, uzviy tarzda rivojlanib, adabiy asarning asosiy elementiga aylangan. Ko'p janrlar mavjud.

Tayanch so'zlar: xalq, xalq, adabiyot, maqol, metall, maorif, madaniyat, odob, kundalik turmush.

ЛЕКСИЧЕСКИЕ И СЕМАНТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦ В

СКАЗКАХ АБДУЛЛЫ КАХХОРА

Аннотация. В этой статье описывается уместное использование народных пословиц в рассказах Абдуллы Каххора и их лексические и семантические особенности.

Пословицы и поговорки, как и в его произведениях, развивались неразрывно на протяжении веков, сохраняя свою первоначальную форму, и стали основным элементом литературных произведений. Существует множество жанров.

Ключевые слова: нация, народ, литература, пословицы, металл, образование, культура, этикет, повседневная жизнь.

LEXICAL AND SEMANTIC ASPECTS OF FOLK PROVERBS IN THE STORIES OF

ABDULLA QAHHOR

Abstract. This article describes the appropriate use of folk proverbs in the stories of Abdullah Qahhor and their lexical and semantic features. Proverbs and sayings, as in his works, have developed inseparably over the centuries, preserving their original form, and have become the main element of literary works. There are many genres.

Keywords: nation, people, literature, proverbs, metal, education, culture, etiquette, everyday life.

O'zbekning atoqli va zabardast yozuvchisi, o'tkir qalam sohibi Abdulla Qahhor hikoyalarida xalq maqollari hamda qardosh xalqlar maqollarini unumli ishlatib, o'zining yashayotgan davridagi siyosiy tuzum oqibatida qiyinchilik bilan hayot kechirayotgan xalqning, millatning kundalik hayotini yoritishda ustalik bilan foydalanadi. Shuningdek, aksar hollarda maqolnining asl tuzilishini o'zgartirmaydi va qarama-qarshi ma'noli so'zlardan ko'p foydalanib, maqol va matallarni hikoyaning istagan qismiga mos ishlata oladi.

Maqollardan ma'no kuchaytirish va vaziyatni fosh qilish kabi maqsadlarda foydalanadi.

Hikoyani o'qishdan oldin maqolni o'qigan o'quvchi bir butun hikoya ma'nosini anglab yetadi. Abdulla Qahhor asarlari tarkibidagi kabi maqol va matallar asrlar osha bir-biridan ajralmagan holda rivojlanib, o'z qolipini saqlab qolgan holda badiiy adabiyotda muallaq o'rniga ega janrlar bo'lib kelmoqda.

O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev Abdulla Qahhorni shunday eslaydi: "Mana, Abdulla Qahhor haqida xotiralar kitobi chiqayapti. Ulkan rus adiblari haqida zamondoshlari bitgan ko'p xotiralarni o'qiganman. Ayniqsa, I.Buninning Chexov haqidagi yodnomalari yoqadi. Unda Chexovning qanday o'tirishi, havo qandoq ekani va nimalar degani g'oyat aniqlik bilan yozilgan. O'zimning Abdulla Qahhorni ko'rgan chog'larim haqida o'ylab, xotiralarimni beixtiyor anavi yodnomalarga solishtirishni istasam: "Tavba, — degim keladi. — Bunin Chexovning uyiga reportor sifatida borar ekan, xolos. Yoki... uning xotirasi o'zi — mo'jiza".

Bir yozuvchi boshqa yozuvchining asarlarini turli yillarda tarjima qilsa, bilingki, bu shunchaki havas emas, balki uning asarlarini tarjima qilayotgan odamga yuksak ishonch belgisidir. Menga Qahhorning shaxsiyati, xarakteri, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi yoqadi, qobiliyati Menga uning o'ziga xos jihati bo'lgan lirika va kinoya yoqdi. Bir so'z bilan aytganda, uning barcha jihatlari menga yoqdi. Uning hayotida ham, ijodida ham jasoratini alohida qadrladim, bu uning asarlari uchun tanlagan hayotiy materialida yaqqol namoyon bo'ldi.

U materialga mavzuni va muammoni qanday hal qilganini eslaydi, deb eslaydi yozuvchi Konstantin Simonov¹.

"Agar yozuvchining axloq kodeksi tuziladigan bo'lsa, men halollik bilan shijoatni birinchi modda qilib qo'yar edim, chunki yozuvchining boshqa hamma xislatlari uning qay darajada halol, naqadar shijoatli ekaniga bog'liq.

Adabiy asar yozish uchun, hech shubhasiz, talant kerak, lekin yozilgan narsani o'chirish, kitobxonga zarur gaplarnigina qoldirish uchun talantning o'zi kifoya qilmaydi, insof ham kerak."²-Abdulla Qahhor

Abdulla Qahhor bosib o'tgan hayot yo'li ham, ijod yo'li ham vijdon yo'li edi. U so'nggi nafasigacha millat dardi bilan yashadi. Shuning uchun ham unga og'ir bo'lgan. Mamlakatda toza fikrlaydigan odamlar kamayib ketgani, shular ham iqtidorini yangi haqiqat izlashga emas, eskilarini takrorlashga sarf aylaganiga qaramay, Abdulla Qahhor doimo ozod fikr, yangi haqiqatlar uchun kurashgan — yolg'izlanish, tanqidu ta'qiblarni pisand qilmasdan kurashgan.

¹ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002. – 558 b

² Abdulla Qahhor "Yo'qotganlarim va topganlarim".-2008

Abdulla Qahhorning ijodiy nafasidan nomardlik, har qanday g'irromlik titragan, tubanlik o'zini panaga tortgan. Unga tish qayraganlar esa yuzlariga niqob tortishga majbur bo'lishgan.

Uning borligi millatning ham davlati, ham sarvati, ham shavkati bo'lgan. Mubolag'asiz shunday!

Ma'lumki, Abdulla Qahhor mahoratining ildizlari nafaqat milliy adabiyotimiz zamini, balki mumtoz rus adabiyoti namoyandalari — Tolstoy, Turgenev, Gogol', eng avvalo, Chexov ijodiy tajribalari bilan ham chambarchas bog'liq. Sirasini aytganda, Abdulla Qahhor jahon adabiyotidagi yutuqlarni imkon darajasida ijodiy o'zlashtirib, milliy nasrimizda yangi sahifalar ochgan. Bu sahifalarda muhrlangan so'zlar, tuyg'u va xarakterlarga takror-takror nigoh tashlagan sayin insonning so'z vositasida mo'jiza yaratish salohiyatiga bo'lgan ishonch shuncha ortadi.

Men, barcha tengdoshlarim qatori, Abdulla Qahhor asarlarini o'qishni bolalikda — maktab darsliklaridan boshlaganman. Abdulla Qahhorning meni dastlab juda qiziqtirgan asari “Anor” hikoyasi edi. Shu hikoyadan keyin birin-ketin adibning yupqa-qalin kitoblarini topib o'qishga kirishib ketganman. Bolalik o'qishlarida qoldi. Yigitlik shamolday o'tdi-ketdi... Lekin men hamon qahhorxonlikdan to'xtaganim yo'q. O'qish ishtiyoqi ham, taassurot va mushohada ham endi nisbatan o'zgacha. Bultur “Sarob”ni qayta o'qidim. Qanday ajoyib roman! Yigirma uch yoshli o'spirin yigit shunday ko'rkam, shunday baquvvat kitob yozganiga aql bovar qilmaydi. “Sarob”da sirli-sehrli bir ruh bor. Ana shu ruh asar qahramonlari taqdiriga biryoqlama qarashga imkon bermaydi. Ilk o'qishda romanning tub mohiyatini yetarli darajada tushunmaganman. Lekin Saidiy ham, Munisxon ham menga yoqqan. Negadir ularni ayblashga, dushman deyishga tilim bormagan. Boshqa obrazlarga nisbatan Saidiy, Munisxon va Murodxo'ja domla xarakterlari juda pishiq ishlanganday tuyulgan. Ma'lumki, “Sarob” sho'ro tuzumi dushmanlari — o'zini millat homiysi, millatchi deb atagan guruhga qarshi, “burjua millatchiligining sinfiy mohiyatini fosh etish” maqsadida yozilgan. Adibning e'tirofi bo'yicha, u “Sarob”da bolaligida qalbini yaralagan o'tmish hayotni “qaytarishga bel bog'lagan dushmanlarning boshiga” qalbidagi “g'azab o'tini yog'dirishga” tirishgan. Ammo nechundir romanda g'azab o'ti sezilmaydi: uning sahifalaridan xolislik shu'lasi taralib turadi. Salimxon, Munis, Saidiy, Murodxo'ja kabi obrazlar, albatta, salbiy tiplar³. Yozuvchi ularning hayot tarzi, fikr-qarashi, psixologiyasi va dunyoqarashini ich-ichidan inkor etadi. Ularning nainki maishiy hayoti, balki ma'naviy olamiga ham dadil kirib boradi.

O'quvchi mutolaa jarayonida ularning har biri go'l, laqma va anoyi kishilar emasligini sezib, shunga iqror bo'lib boradi.

Sho'ro mafkurasi “ko'zgu”sida qaraladigan bo'lsa, bu qahramonlar haqiqatan ham adashgan, xudbin, makkor va g'anim, bir so'z bilan aytganda, zararkunanda kimsalar.

³ Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. —T.: O'zbekiston, 2002. — 558 b

Biroq ularga adolat va xolislik mezoni bilan baho berilsa-chi? Iniga cho‘p suqilsa, ari ham odamga yopishadi, talaydi.

Yurt bosib olinsa, vayron etilsa, elning qoni to‘kilsa, hokimiyat zo‘ravonlikka, qaramlikka asoslansa, odam farzandi ari qadar qarshilik ko‘rsatmasinmi?! Arichalik ham qahri yo‘qmi uning?! Ha, Saidiy xudbin, meshchan va shuhratparast⁴. U millatchi va sho‘ro siyosatining dushmani. Nima qilib bo‘lsa ham odamlarni “bolshevizm zulmidan dod” degizishni ko‘zlaydi.

Boshqa davr, boshqa bir zamon bo‘lganda, ehtimolki, uning qismati butunlay o‘zgacha bo‘lar, “ichki hayoti bilan tashqi hayoti orasidagi kundan-kun o‘tib borgan qarama-qarshilik” joniga qasd qilarli darajaga yetmasdi. Saidiy badiiy ijodda katta bir muvaffaqiyatlarga erishmagan bo‘lsa-da, umrining oxirlarigacha yozuv-chizuvdan o‘zini cheklay olmaydi. Agar u do‘sti Ehsonning “Siz o‘zbek adabiyotini butun dunyo ko‘radigan yuksaklikka ko‘tarishda qatnashasiz.

Bu faoliyatni siz sho‘ro hukumatini nima mustahkamlasa, nima sotsializm qurilishiga yordam bersa, shu “mening mavzuim” deb boshlang...” degan fikrlarini qabul aylab, amalda shuni ko‘rsatishga jahd etsa, hayotda ham, ijodda ham qandaydir yutuqlarni qo‘lga kiritarmidi? Shubhasiz, shunday bo‘lardi. Unda u — Saidiy emas, ixtiyoriy ravishda sho‘ro bosqini va qirg‘inlarini qo‘llab-quvvatlagan ijodkorga aylanardi. Romanning sakkizinchi qismida bir lavha bor. Saidiy ilk bor Salimxonlarnikiga kelganida Munisxon royalda unga bir kuy chalib bermoqchi bo‘ladi va deydi: “Bu juda keksha mashq. Harbiy mashq... Arablar Undulusni olganda chalingan mashq. Kishini shunday g‘ayratlantiradiki, buni eshitganda o‘lik ham tirilib jangga otlanadi. Eshiting, Rahimjon... Mashqni eshitganda Saidiyning ko‘z oldiga gijinglagan arab otlari, nayza, qalqonlar kelib, qulog‘iga kurash va qondan xabar beruvchi tovushlar eshitilib ketdi”. Avvalo, Munisxon kishini g‘ayratlantiruvchi, o‘lik ham tirilib, kurashga otlanadigan qadimiy bir g‘alaba kuyini Saidiyga bejiz chalib bergani yo‘q.

Ikkinchidan, uni tinglagan Saidiyning ko‘z oldigagijinglagan arab otlari, nayza, qalqonlar gavdalanib, qulog‘iga kurash va qon tovushlari eshitilganday bo‘lishi mutlaqo tasodifiy emas.

Bunda qizil bayroq baland ko‘tarilgan bir yurtdagi mag‘lubiyatga ham, ayni paytda, hali so‘nib bitmagan umid, ommonsiz kurash va janglarda tug‘ilajak g‘alabaga ham ishorat bor. Saidiy “erk ertaklari”ga ishonmaydi va ishonishni ham istamaydi. U “o‘z doirasidagi kishilarning hammasini aqlli, hammasining miya mexanizmlari but” va “tushunadigan odamlar» deb bilgani bois boshqa bir “ertak”ning qurboni bo‘ladi. Saidiy va atrofidagilarning fojiasi — faqat adashish fojiasi emas, kurashish fojiasi ham[5]

Abdulla Qahhor ijodining keng ko‘lamlilik va so‘z san’atining eng yuqori cho‘qqisida ekanligi bilan ham ajralib turadi.

⁴ Hamidov, M. (2020, December). ARTISTIC FEATURES OF SHUKHRAT'S NOVEL" MASHRAB". In Конференции.

Qahhor hikoyalaridagi hayot siz-u bizning ko‘z o‘ngimizda sodir bo‘layotgan jamiyat voqeliklarini o‘z ichiga oladi. Romanlaridagi qahramonlarning taqdiri o‘quvchi ko‘z o‘ngida jonlanadi. Hayot haqiqati bilan yo‘g‘rilganligi bois ham kishiga chuqur ta’sir etadi. Qahhor ijodi bilan tanishish bugungi kun o‘quvchisiga nima bera oladi deganda hayot, undagi mashaqqat, insonlarning bir-biriga munosabati, jamiyatdagi illatlar, ayrim nobakor ikkiyuzlamachi insonlar taqdirini ko‘rsatishi bilan birga, Vatan, el-yurt, xalqparvarlik, millatparvarlik kabi ezgu fazilatlarni shakllantirishda ahamiyatga ega.

REFERENCES

1. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –T.: O‘zbekiston, 2002. – 558 b
2. Abdulla Qahhor “Yo‘qotganlarim va topganlarim”.-2008
3. Hamidov, M. (artistic features of shukhrat's novel" mashrab". Конференции 2020, December.
4. Qahhor A. Asarlar. 6 tomlik. 2-tom. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1967. – 147 b.
5. Qahhor Abdulla. Sinchalak. Asarlar. 5 jildlik, 3-jild. Qissalar. Nashrga tayyorlovchi K.Qahhorova. – Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988. – B.44-188